

DAVLAT XARIDLARI SHAFFOFLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Rejapov Saydulla Xikmatullayevich

Alfraganus University dotsenti, PhD

Tojixo'jayev Abduraxmonxo'ja Zokirxo'ja o'g'li

Tashkent international university tadqiqotchisi

Annotatsiya. Raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat xaridlari jarayonlarining shaffoqligini oshirib, ortiqcha byurokratik tartiblarni kamaytiradi, tenderlarni amalga oshirish muddatini qisqartiradi va barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratadi. Elektron platformalar ishga tushirilganda esa ma'lumotlar bazalarini integratsiyalash va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini qo'llash orqali samaradorlik yanada oshadi. Bu esa mamlakatning raqobatbardoshligini kuchaytirishga, shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlarining davlat xaridlarida faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Davlat xaridlari, raqobatni oshirish, korrupsiya, elektron tender platformalari, blokcheyn, ochiq ma'lumotlar siyosati, risklarni boshqarish.

Аннотация. Внедрение цифровых технологий повышает прозрачность процессов государственных закупок, сокращает излишние бюрократические процедуры, ускоряет проведение тендеров и обеспечивает равные условия для всех участников. Запуск электронных платформ, в свою очередь, позволяет интегрировать базы данных и применять автоматизированные механизмы контроля, что существенно повышает эффективность. Это способствует укреплению конкурентоспособности страны, а также расширению возможностей активного участия субъектов малого и среднего бизнеса в государственных закупках.

Ключевые слова: Государственные закупки, повышение конкуренции, коррупции, электронные тендерные площадки, блокчейн, политика открытых данных, управление рисками.

Abstract. The introduction of digital technologies increases the transparency of public procurement processes, reduces excessive bureaucratic procedures, accelerates tender implementation, and ensures equal conditions for all participants. The launch of electronic platforms, in turn, enables the integration of databases and the use of automated control mechanisms, which significantly enhances efficiency. This contributes to strengthening the country's competitiveness and expanding opportunities for active participation of small and medium-sized enterprises in public procurement.

Keywords. Public procurement, increasing competition, corruption, e-tendering platforms, transparency, blockchain, open data policy, risk management.

Kirish. Davlat xaridlari iqtisodiy siyosatning strategik instrumentlaridan biri bo'lib, u nafaqat byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni, balki milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, raqobatni kuchaytirish va ijtimoiy

infratuzilmani rivojlantirishni ham ta'minlaydi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari YAIMning 12–20 foizigacha bo'lgan ulushni tashkil etadi va bu sohada yaratilgan shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlar iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda davlat xaridlari tizimi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion muhitni rag'batlantirish hamda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Oxirgi yillarda davlat xaridlarida elektron tender tizimlari, “open data” tamoyillari, “open contracting” standartlari va raqamli monitoring platformalarining joriy etilishi bu sohaga tub o'zgarishlar olib kirmoqda. Xususan, xarid jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish, ishtirokchilarni diskriminatsiyasiz jalb qilish, korrupsion sxemalarni avtomatik aniqlash va monitoring qilish kabi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, elektron tizimning o'zi korrupsiyani to'liq bartaraf eta olmaydi. Sababi tender talablari sun'iy ravishda muayyan subyektga moslashtirilishi, ma'lumotlarning kechiktirib e'lon qilinishi, baholash komissiyalarining subyektiv qarorlari va nazorat organlari faoliyatining sustligi hali ham muammo bo'lib qolmoqda. Demak, davlat xaridlarida shunchaki raqamlashtirish emas, balki raqobatni real oshirishga xizmat qiluvchi kompleks institutsional islohotlar dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ilmiy adabiyotlarda davlat xaridlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi strategik mexanizm sifatida talqin etilib, shaffoflik, ochiq raqobat va korrupsiyani kamaytirish davlat xaridlarining asosiy samaradorlik omillari sifatida ko'rsatiladi. Xalqaro manbalarda “open contracting”, elektron tender platformalari, ochiq ma'lumotlar standartlari va AI-monitoring texnologiyalari raqobatni kuchaytirish hamda korrupsion xatarlarni avtomatik aniqlashning eng samarali vositalari sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar tender jarayonini soddalashtirish, baholash mezonlarini obyektivlashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish KOB subyektlarining ishtirokini kengaytirib, davlat xaridlarining iqtisodiy ta'sirchanligini oshirishini ta'kidlaydilar. Mahalliy tadqiqotchilar raqamli texnologiyalar davlat xaridlari jarayonlarini jadallashtirish va ularning shaffofligini ta'minlashda muhim o'rin tutishini ta'kidlamodalar. MDH mamlakatlarida elektron tenderlar va raqamli platformalar davlat xaridlari samaradorligini oshirish maqsadida keng qo'llanilmoqda. Xorijiy ilmiy izlanishlar esa raqamli texnologiyalar korrupsiyani qisqartirish, ma'lumotlarni integratsiya qilish va jarayonlarni avtomatlashtirishda yuqori natija berishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davlat xaridlari jarayonlarini raqobat, shaffoflik va korrupsiya risklari nuqtai nazaridan tahlil qilib, xalqaro “open contracting” standartlari, raqamli monitoring vositalari va AI-analitika imkoniyatlarini taqqoslamali iqtisodiy yondashuv asosida o'rgandi.

Tahlil va natijalar. Mavzuning dolzarbligi, ayniqsa, xalqaro reyting va indekslarda davlat xaridlari shaffofligi va korrupsiya darajasi asosiy baholash mezonlaridan biri sifatida qaralayotgan bugungi kunda yanada kuchaymoqda. Korrupsiyaning yuqori darajasi nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarga, balki investitsion

jozibadorlik pasayishiga, tadbirkorlik muhitiga ishonch riski ortishiga va resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, davlat xaridlari tizimini shaffof, raqobatbardosh va korrupsiyadan xoli qilish bozor iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shartlardan biridir. Mazkur tadqiqot ana shu ehtiyoj asosida davlat xaridlarida raqobatni oshirish va korrupsiyani kamaytirish mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashgan holda kompleks taklif va yechimlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti (UN DESA) tomonidan 2024-yilda nashr etilgan UN E-Government Survey 2024 ma’lumotlariga ko‘ra, jahondagi 135 ta mamlakat — bu umumiy davlatlar sonining taxminan 70 foizini tashkil etadi — davlat xaridlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan elektron (e-procurement) portallariga ega ekani qayd etilgan. Davlat xaridlarida raqobat darajasini aniqlashda ishtirokchilar soni, tender shartlarining ochiqligi, baholash mezonlarining obyektivligi va yangi biznes subyektlarining tizimga kirish imkoniyati asosiy mezonlar sifatida qaraladi. Agar tenderlarda taklif beruvchilar doimiy ravishda bir necha yirik subyektlardan iborat bo‘lsa yoki ularning kelishuvi natijasida narxlar sun‘iy ravishda yuqori shakllantirilsa, bu holat raqobatning cheklanganligini va korrupsion xavf kuchliligini anglatadi. Shu bois tenderlarni baholashda “eng past narx” mezoni bilan bir qatorda “hayot sikli qiymati”, “innovatsionlik darajasi”, “mahallilashtirish ko‘rsatkichi” ham e’tiborga olinishi raqobatning strategik sifatini oshiradi. Bu jarayonda digital texnologiyalar va sun‘iy intellekt asosidagi risk-skor tizimlari tenderdagi shubhali harakatlarni real vaqt rejimida aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Korrupsiyani kamaytirish istiqbolida “open contracting data standard” (OCDS) tamoyillari asosida barcha xarid bosqichlarini ochiq e’lon qilish, shartnoma ijrosi monitoringini jamoatchilik nazoratiga topshirish va baholash komissiyalarini avtomatlashtirish eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda tender hujjatlarining oddiy va tashrif buyuruvchi tadbirkorlar uchun tushunarli shaklda e’lon qilinishi, barcha savol-javoblar ochiq portallar orqali yuritilishi va tanlov natijalari bo‘yicha aniq analitik hisobotlar taqdim etilishi majburiy talab sifatida joriy etilgan. Bunday tizim kichik va o‘rta biznesning davlat xaridlarida ishtirokini keskin kengaytirib, bozorda sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi. Shuningdek, davlat xaridlarida korrupsiyani pasaytirishning yana bir innovatsion yo‘nalishi — “AI-monitoring” va “machine learning” asosidagi avtomatik anomaliya aniqlash tizimlaridir. Ushbu yondashuv tender shartlarida bir xil hujjat formati, takrorlanayotgan IP-manzillar, haddan tashqari o‘xshash taklif matnlari, shubhali diskvalifikatsiyalar kabi indikatorlarni aniqlaydi va ularni risk darajasi bo‘yicha avtomatik baholaydi. Natijada inson omiliga bog‘liq subyektivlik minimal darajaga tushadi. Bundan tashqari, jamoatchilik nazorati, ommaviy audit platformalari va “proactive procurement analytics” mexanizmlarining qo‘llanilishi davlat xaridlarining shaffofligini yuqori darajada ta’minlaydi.

Umuman olganda, davlat xaridlarida raqobatni oshirish va korrupsiyani kamaytirish faqat texnik raqamlashtirish bilan emas, balki institutsional mustahkamlash, normativ hujjatlarda aniq va oddiy talablar belgilash, subyektlar teng huquqliligini kafolatlovchi siyosiy iroda va kuchli monitoring mexanizmlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan, ushbu sohada xalqaro standartlardan ilhomlangan holda milliy modelni innovatsion raqamli iqtisodiyot talablari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Xulosa. O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat xaridlarini raqamlashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu sohani xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish, zamonaviy texnologiyalarni to'liq joriy etish va ma'lumotlar shaffofligini yanada oshirish zarurati saqlanib turibdi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlariga raqamli yechimlarni joriy etish korrupsiyani kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish hamda tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratishda muhim mexanizm hisoblanadi. Ayniqsa, tender jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni ochiq taqdim etish, blokcheyn va sun'iy intellekt kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish inson omillarini minimallashtirishga va qaror qabul qilishda yuksak shaffoflikka erishishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli platformalar kichik va o'rta biznesning davlat xaridlarida ishtirokini kengaytirish, sog'lom raqobatni kuchaytirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash imkonini bermiqda.

Sun'iy intellekt va ma'lumotlar analitikasi asosida korrupsion xatarlarni proaktiv aniqlash imkoniyatlari raqamli transformatsiya bosqichida dolzarb strategik yo'nalish sifatida baholanadi. Ayniqsa tender shartlarining sun'iy toraytirilishi, taklif matnlarining takrorlanishi, baholash komissiyalari qarorlarida statistik og'ishlar kabi indikatorlarni avtomatik monitoring qilish davlat xaridlaridagi inson omili ta'sirini minimal darajaga tushiradi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun qulaylik yaratish, axborot asimmetriyasini kamaytirish va huquqiy protseduralarning soddalashtirilishi sog'lom raqobat muhitining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ham raqamli xarid tizimini rivojlantirish yo'nalishida muayyan yutuqlar qayd etilgan. Biroq, uni xalqaro standartlarga muvofiq ravishda takomillashtirish, innovatsion texnologik yechimlarni amaliyotga to'liq tatbiq etish va ochiq ma'lumotlar muhitini kengaytirish kabi vazifalar hali ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. OECD. Government at a Glance: Public Procurement and Transparency.
2. World Bank. Enhancing Public Procurement Reform through Digital Tools.
3. Open Contracting Partnership. Global Procurement Monitoring Framework.
4. Amann E., Baer W. Public Procurement and Industrial Policy.
5. European Commission. AI-based Anomaly Detection in Public Procurement.